XALQ DEPUTATLARI BUXORO VILOYATI KENGASHINING QARORI

2023 - yil 29 - dekabr VI-89-97-2-0-K/23 Buxoro viloyati hokimligi

Buxoro viloyatining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2023-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-886-son Qonuniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2023-yil 7-noyabrdagi 02-1150-sonli xulosasi hamda Iqtisodiyot va Moliya vazirligining 2023-yil 25-dekabrdagi 01/30-2-10344-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Buxoro viloyati Kengashi

QAROR QILDI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” Qonuniga muvofiq, Buxoro viloyati mahalliy budjetining 2024-yil uchun daromadlari 4232,4 mlrd.so‘m, xarajatlari 4593,5 mlrd.so‘m prognoz qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 361,1 mlrd.so‘m miqdorida belgilanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2024-yil uchun Buxoro viloyatini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi hamda 2024-2025-yillarga maqsadli mo‘ljallari 1-ilovaga muvofiq, 2024-yil uchun viloyat mahalliy budjeti daromadlari prognozi 2-ilovaga muvofiq ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2024-yil uchun viloyatning viloyat budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 3-ilovaga, 2024-yil uchun tumanlar va shaharlar budjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha viloyat mahalliy budjeti bilan tumanlar va shaharlar mahalliy budjetlarining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda Buxoro viloyati bo‘yicha g‘aznachilik boshqarmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

5. 2024-yil uchun tumanlar va shaharlar mahalliy budjetlarining daromadlari va xarajatlarining prognozi 5-ilovaga muvofiq ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

6. 2024-yil uchun viloyat budjetidan tumanlar va shaharlar mahalliy budjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tumanlar va shaharlar mahalliy budjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat‘i nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2024-yil uchun viloyat mahalliy budjetining viloyat budjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 19,5 mlrd. so‘m miqdorida belgilansin.

Tumanlar va shaharlar budjetlarining 2024-yil uchun zaxira jamg‘armalari tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Buxoro viloyati viloyat budjetining, tumanlar va shaharlar budjetlarini ijro etishda yuqori turuvchi budjetdan ularga ajratiladigan budjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli budjetlarining zaxira jamg‘armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmasligi inobatga olinsin.

8. 2024-yil uchun viloyatning viloyat, shahar va tumanlar budjetlari shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 7-ilovaga muvofiq belgilansin.

9. Viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (B.Adilov)ga O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 142-moddasi talablari hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 20-dekabrdagi 04/30-2-9859-sonli xatiga asosan viloyat mahalliy budjeti daromadlari va xarajatlarining balansligini ta‘minlash, shuningdek mahalliy budjet taqchilligiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida viloyat mahalliy budjetining daromadlar prognozini (bajarilmagan qismini) va xarajatlar rejasini teng miqdorda 2023-yil III-chorakdan kamaytirgandan holda, IV-chorakka o‘tkazish (ko‘paytirish) bo‘yicha o‘zgartirishlarni 8-ilovaga muvofiq belgilangan tartibda kiritilishiga rozilik berilsin.

10. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2024-yilda quyidagi soliq turlari:

a) tumanlar va shaharlar budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

aylanmadan olinadigan soliq;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlardan, g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan, shuningdek avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq;

Mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i va alkogol maxsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar 2023-yil 1-iyul holatiga ko‘ra tumanlar va shaharlar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq hisob-kitob qilinsin.

b) Buxoro viloyatining viloyat budjeti daromadlari viloyat mahalliy budjetiga to‘liq hajmda

o‘tkaziladi:

yirik soliq to‘lovchi korxonalarning jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i, yer solig‘i va mol-mulk solig‘i hamda yakuniy iste‘molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan jarimalar;

Davlat unitar korxonalarining sof foydasidan (dividentlar) undiriladigan soliqlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

davlat aktivlarini xususiylashtirishdan tushgan tushumlar va boshqa soliqlar.

v) viloyat budjeti hamda tumanlar va shaharlar budjetlari o‘rtasida:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (yirik soliq to‘lovchi korxonalardan tashqari);

yakuniy iste‘molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i (yirik soliq to‘lovchi korxonalardan tashqari);

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan solig‘i (yirik soliq to‘lovchi korxonalardan tashqari);

yuridik shaxslar yer solig‘i (yirik soliq to‘lovchi korxonalardan tashqari);

davlat bojlari;

Hukumat qarorlari bilan belgilangan normativlarga asosan boshqa tushumlar taqsimlanadi.

11. Viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (B.Adilov) shaharlar va tumanlar hokimliklari bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-dekabrdagi “Mahalla budjeti tizimini joriy etish orqali mahallalarning moliyaviy imkoniyatini yanada kengaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-458-sonli qaroriga asosan:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer soliqlaridan (noturar joylar bo‘yicha mol-mulk va yer solig‘idan tushgan mablag‘lar chegirilgan holda) hamda jismoniy shaxslarning mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan daromadlaridan undirilgan soliq tushumlarining 10 foizini har oy yakuni bilan keyingi oyning 10-sanasigacha tegishli “Mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamg‘arma”lariga o‘tkazish;

har oy yakuni bilan mahalliy budjetga tegishli soliqlardan tushgan tushumlardan kelib chiqib, ushbu jamg‘armalarga budjetdan ajratiladigan mablag‘lar miqdoriga tegishli mahalliy budjetlar parametrlariga o‘zgartirishlarni kiritilishini ta‘minlasin.

12. Viloyat hokimining moliya – iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari B.Axmedov viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (B.Adilov), soliq boshqarmasi (D.Yuldashev) tumanlar va shaharlar hokimliklari, mas‘ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjet prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas‘uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta‘minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e‘tibor qaratsin.

13. Viloyat soliq boshqarmasi (D.Yuldashev) tumanlar va shaharlar soliq inspeksiyalari bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarning o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yuridik va jismoniy shaxslarning budjet oldidagi soliq qarzdorliklarini qisqartirish va o‘z vaqtida undirish choralarini ko‘rish;

doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta‘minlash;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e‘tibor qaratish;

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish;

Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi (Y.Habibov) bilan birgalikda viloyatda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarning to‘liq hisoblanishini ta‘minlasin.

14. Viloyat soliq boshqarmasi (D.Yuldashev), Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish mintaqaviy inspeksiyasi hamda tumanlar va shaharlar hokimliklari bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karyerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karyerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karyerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karyerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

15. Majburiy ijro byurosi viloyat boshqarmasi, viloyat soliq boshqarmasi (D.Yuldashev) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rib borishni ta‘minlasin.

16. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasi (F.Norov) bo‘sh turgan obyektlaridan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Buxoro viloyat hududiy boshqarmasi bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra viloyatda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki obyektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video-materiallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini “ye-ijro auksion” maydonchasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirsin.

17. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasi (F.Norov), viloyat soliq boshqarmasi (D.Yuldashev), viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (B.Adilov) davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan 2024-yilning 1-iyuliga qadar 2023-yil yakunlari bo‘yicha o‘z sof foydasining 50 foizidan kam bo‘lmagan miqdoridagi ajratmalar va davlat ulushi bo‘yicha dividendlarni 2024-yilning 1-sentyabridan kechiktirmay tegishli darajadagi budjetlarga o‘tkazilishini ta‘minlasin.

18. Viloyat soliq boshqarmasi (D.Yuldashev), O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasining viloyat hududiy boshqarmasi (N.Jabborov), tumanlar va shaharlar hokimliklari bilan birgalikda tashqi reklama ob‘yektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama obyektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni budjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

19. Viloyat irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (E.Fayzillayev) va viloyat soliq boshqarmasi (D.Yuldashev) tumanlar va shaharlar hokimliklari bilan birgalikda viloyatda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblash hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to‘liq undirib olish choralarini ko‘rsin.

Bunda, qishoq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste‘mol qilinayotgan suv resuslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e‘tibor qaratilsin.

20. Viloyat ichki ishlar boshqarmasi (M.Miralimov), viloyat yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi, majburiy ijro byurosi viloyat boshqarmasi, Davlat xizmatlari agentligi viloyat boshqarmasi hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida o‘rnatilgan tartibda budjetga undirish choralarini ko‘rib borsin.

21. Davlat moliyaviy nazorati viloyat boshqarmasi (Y.Cho‘liyev):

budjet mablag‘larining maqsadli ishlatilishi yuzasidan o‘tkazilgan nazorat tadbirlari natijalariga ko‘ra, aniqlangan kamomad va noqonuniy o‘zlashtirishlarni to‘liq budjetga tiklash;

budjet intizomiga qat‘iy rioya etilishi ustidan doimiy monitoring ishlarini yanada kuchaytirisin;

har chorak yakuni bilan monitoring natijalari to‘g‘risidagi axborotni Xalq deputatlari viloyat Kengashiga kiritilishini ta‘minlasin.

22. Xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investisiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etiladigan takliflarini belgilangan muddatlarda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazish va budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqish;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larning samarali va maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat o‘rnatish, tavsiyalar berish va monitoring qilish;

mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etish va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirish vazifasi topshirilsin.

23. Viloyat, tumanlar va shaharlar hokimliklariga:

tumanlar va shaharlar budjetlari jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirish;

bunda, xalq deputatlari viloyat, tumanlar va shaharlar Kengashlari, yoshlar ishlar agentligi, tumanlar va shaharlar hokimliklari huzuridagi jamoatchilik Kengashlari hamda hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish;

mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta‘mirlash ishlari olib borilayotgan ob‘yektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta‘mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borish topshirilsin.

24. Viloyat hokimining moliya–iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari, viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, tumanlar va shaharlar hokimliklari va tegishli boshqarmalar bilan birgalikda:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha xalq deputatlari viloyat Kengashiga chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

25. Mazkur qaror “Buxoronoma” va “Buxarskiy vestnik” gazetalarida rasmiy e‘lon qilinsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

26. Ushbu qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

27. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investisiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **B.K.Zaripov**

Xalq deputatlari Buxoro viloyat
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-89-97-2-0-K/23-son qaroriga
1-ilova

Buxoro viloyatining 2024-yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognoz ko‘rsatkichlari hamda 2025-2026 yilga mo‘ljallari

№	Ko‘rsatkichlar	2024-yil uchun prognoz	Mo‘ljal	
			2025-yil	2026-yil
1.	Yalpi hududiy mahsulot, mlrd.so‘m	63 710,8	70 903,4	79 963,4
2.	Yalpi hududiy mahsulotning o‘sish sur’ati, foizda	105,5	105,7	105,9
3.	Iste’mol narxlari indeksi, dekabrda avvalgi yil dekabr oyiga nisbatan, foizda	109,5	109,4	109,2
4.	Sanoat mahsulotlarining o‘sish sur’ati, foizda	107,5	107,8	108,0
5.	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati, foizda	103,9	104,0	104,0
6.	Chakana tovar aylanmasining o‘sish sur’ati, foizda	107,0	107,2	107,5

Xalq deputatlari Buxoro viloyat
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-89-97-2-0-K/23-son qaroriga
2-ilova

Buxoro viloyat mahalliy budjeti daromadlarining
2024-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

mln.so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	499 630,0
2	Aylanmadan olinadigan soliq	0,0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 281 726,1
4	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	0,0
5	Aksiz solig‘i, jami	288 373,7
	shu jumladan:	0,0
	- benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq	*288 373,7*
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	304 626,0
7	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	0,0
8	Yuridik shaxslar yer solig‘i	258 320,0
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	0,0
10	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	0,0
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	0,0
12	Davlat boji	58 778,0
13	Jarimalar	113 945,0
14	Ijara to‘lovi	0,0
15	Davlat tashkilotlarining sof foydasidan (divident) daromad solig‘i	40 477,0
16	Yig‘imlar	92 996,0
17	Xususiylashtirish	20 000,0
18	Boshqalar	0,0
	JAMI	**2 958 871,8**
19	Tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar	361 105,6
	HAMMASI	**3 319 977,4**

Xalq deputatlari Buxoro viloyat
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-89-97-2-0-K/23-son qaroriga
3-ilova

2024-yil uchun Buxoro viloyati budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

mln.so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	Miqdori
Xarajatlar miqdori, Jami		**3 319 977,4**
	shu jumladan:	
1.	**Viloyat maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi boshqarmasi**	**447 358,6**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	204 433,1
	Professional ta’lim muassasalari, texnikumlar, kasb-hunar maktablari	8 825,5
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	234 100,0
2.	**Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar hududiy boshqarmasi**	**103 022,3**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 248,0
	Professional ta’lim muassasalari, texnikumlar, kasb-hunar maktablari	101 774,3
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
3.	**Viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi**	**748 035,8**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	691 274,7
	Professional ta’lim muassasalari, texnikumlar, kasb-hunar maktablari	8 702,1
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	48 059,0
4.	**Sog‘lom avlod uchun jamg‘armasi hududiy bo‘linmasi**	**374,1**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	374,1
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
5.	**Viloyat madaniyat boshqarmasi**	**53 879,5**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	50 990,6
	Professional ta’lim muassasalari, texnikumlar, kasb-hunar maktablari	2 888,9
6.	**Ma’naviyat va ma’rifat markazi**	**2 808,1**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 808,1
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
7.	**Viloyat yoshlar siyosati va sportni rivojlantirish boshqarmasi**	**132 283,9**

	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	106 539,9
	Professional ta’lim muassasalari, texnikumlar, kasb-hunar maktablari	25 744,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
8.	**Viloyat qurilish va uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish boshqarmasi**	**68 697,4**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	9 655,0
	Issiqlik energiyasini ishlab chiqaruvchilarga aholiga ko‘rsatilgan issiqlik ta’minoti xizmati uchun pasaytirilgan tariflarni qo‘llash natijasida yuzaga keladigan zararni qoplash xarajatlari	51 882,0
	Issiqlik ta’minoti tizimini ta’mirlash xarajatlari	1 905,8
	Ko‘p qavatli uy-joylarning liftlarini almashtirish xarajatlari	633,6
	Texnikumlar, qurilish sohasi malakali mutaxassislarini tayyorlash markazlari xarajatlari	4 621,1
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
9.	**Viloyat qishloq xo‘jaligi boshqarmasi**	**52 194,8**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	47 191,6
	Professional ta’lim muassasalari, texnikumlar, kasb-hunar maktablari	5 003,1
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
10.	**Viloyat irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi**	**91 369,8**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	68 120,4
	Professional ta’lim muassasalari, texnikumlar, kasb-hunar maktablari	1 037,4
	Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash	37 400,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	22 212,0
11.	**Viloyat transport boshqarmasi**	**3 183,5**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 489,0
	Professional ta’lim muassasalari, texnikumlar, kasb-hunar maktablari	1 694,5
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
12.	**Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi**	**39 859,1**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	8 959,7
	Turizm boshqarmasi va uning tasarrufidagi muassasalar	3 411,0
	O‘rmon xo‘jaligi boshqarmalari saqlash xarajatlari	27 488,5
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
13.	**Viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi**	**1 433 641,2**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	7 261,0

	Chet el kreditlarini qaytarish xarajatlari	36 332,5
	G‘aznachilik xizmati viloyat boshqarmasini saqlash xarajatlari	8 977,0
	Kadastr agentligining viloyat boshqarmasini saqlash xarajatlari	2 274,6
	budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining hududiy boshqarmasini saqlash xarajatlari	10 941,0
	Davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida fuqarolar yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash xarajatlari	10 000,0
	Advokatlik xizmatiga haq to‘lash uchun ajratilgan mablag‘lar	2 500,0
	Hududiy moliya organlarining malaka oshirish xarajatlari	273,4
	Pensiya jamg‘armasi viloyat boshqarmasining malaka oshirish xarajatlari	120,0
	Tuman va shaxar mahalliy budjetlariga transfertlar	1 354 961,7
14.	**Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish boshqarmasi**	**1 833,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 833,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
15.	**Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hududiy boshqarmasi**	**2 003,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 003,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
16.	**Viloyat kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi**	**8 256,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	5 214,0
	Oila va xotin-qizlar boshqarmasi saqlash xarajatlari	1 348,0
	Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish Agentligining hududiy boshqarmasini saqlash xarajatlari	1 694,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
17.	**Viloyat investisiyalar va tashqi savdo boshqarmasi**	**8 241,8**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	8 241,8
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
18.	**Viloyat adliya boshqarmasi**	**15 188,3**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	5 537,0
	FHDYOlarni saqlash xarajatlari	2 254,0
	Arxiv muassasalarini saqlash xarajatlari	5 554,9
	Professional ta’lim muassasalari, texnikumlar, kasb-hunar maktablari	1 842,5
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
19.	**Viloyat soliq boshqarmasi**	**27 711,8**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	24 419,0

	Sud boshqaruvchilari mehnatiga haq to‘lash xarajatlari	1 423,6
	Professional ta’lim muassasalari, texnikumlar, kasb-hunar maktablari	1 869,2
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
20.	**Viloyat hokimligi**	**32 973,6**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	9 502,0
	viloyat mahalliy budjetining zaxira jamg‘armasi	19 455,6
	Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish o‘quv kurslari	495,6
	Avtobus yo‘nalishlarining yillik subsidiyalash xarajatlari	2 949,3
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarning ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashish xarajatlari	378,0
	Hokimlik ijtimoiy moslashish markazi bo‘limlari	193,1
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
21.	**Xalq deputatlari viloyat Kengash kotibiyati**	**5 209,1**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	597,0
	Nodavlat notijorat tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash xarajatlari	4 612,1
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
22.	**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi tashkilotlar**	**19 753,9**
	shu jumladan:	
	Viloyat xalq qabulxonasini saqlash xarajatlari	9 559,4
	Rasmiy mehmonlar qabullar uyini saqlash xarajatlari	7 023,3
	Axborot kutubxona markazlari	2 407,1
	Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi	764,2
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
23.	**Markaziy saylov komissiyasi**	**88,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	88,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
24.	**Boshqa tashkilotlar**	**22 010,7**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	22 010,7
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0

Xalq deputatlari Buxoro viloyat Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-89-97-2-0-K/23-son qaroriga
4-ilova

Umumdavlat soliqlaridan shahar va tumanlar mahalliy budjetlariga 2024-yildagi ajratmalari me'yorlari

foiz hisobida

T/R	Shaxar va tumanlar nomi	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	Aylanmadan olinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i* (**)	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	Yakuniy iste'molchilarga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i*	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq*	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Yuridik shaxslar yer solig'i*	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i
1	Buxoro shahri	0	100	15	100	30	20	100	50	100
2	Kogon shahri	0	100	45	100	100	0	100	100	100
3	Olot tumani	0	100	50	100	100	50	100	50	100
4	Buxoro tumani	0	100	45	100	0	50	100	50	100
5	Vobkent tumani	0	100	50	100	100	50	100	50	100
6	G'ijduvon tumani	0	100	45	100	0	50	100	0	100
7	Kogon tumani	0	100	50	100	0	0	100	50	100
8	Qorako'l tumani	0	100	50	100	0	50	100	0	100
9	Qorovulbozor tumani	0	100	50	100	100	100	100	0	100
10	Peshku tumani	0	100	50	100	100	50	100	0	100
11	Romitan tumani	0	100	45	100	0	0	100	50	100
12	Jondor tumani	0	100	45	100	0	50	100	50	100
13	Shofirkon tumani	0	100	45	100	100	50	100	50	100

T/R	Shaxar va tumanlar nomi	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Davlat bojlari***	Jarimalar***	Yig‘imlar***	Davlat tashkilotlari foyda solig‘i****	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	Xususiylash-tirish	Boshqalar*****
1	Buxoro shahri	100	100	100	0	0	0	100	0	0
2	Kogon shahri	100	100	100	0	0	0	100	0	0
3	Olot tumani	100	100	100	0	0	0	100	0	0
4	Buxoro tumani	100	100	100	0	0	0	100	0	0
5	Vobkent tumani	100	100	100	0	0	0	100	0	0
6	G‘ijduvon tumani	100	100	100	0	0	0	100	0	0
7	Kogon tumani	100	100	100	0	0	0	100	0	0
8	Qorako‘l tumani	100	100	100	0	0	0	100	0	0
9	Qorovulbozor tumani	100	100	100	0	0	0	100	0	0
10	Peshku tumani	100	100	100	0	0	0	100	0	0
11	Romitan tumani	100	100	100	0	0	0	100	0	0
12	Jondor tumani	100	100	100	0	0	0	100	0	0
13	Shofirkon tumani	100	100	100	0	0	0	100	0	0

Izoh:: ** yirik soliq to‘lovchilardan tushgan tushumlar to‘liq viloyat budjetiga yo‘naltiriladi.*

*** Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha 3111104, 3111106, 3111300, 3111600, 3111800 daromad kodlariga tushadigan mablag‘lar to‘liq tumanlar va shaharlar mahalliy budjetlariga yo‘naltiriladi.*

**** Jarimalar (3 430 103), davlat boji (3422 103) va yig‘imlar (3 422 203) bo‘yicha tushumlar to‘liq tegishli tumanlar va shaharlarlar mahalliy budjetlariga yo‘naltiriladi*

***** Davlat unitar korxonalarining sof foydasidan davlat budjetiga ajratmalar bo‘yicha 3412110, 3412112 daromad kodlariga tushadigan mablag‘lar to‘liq viloyat budjeti daromadlariga yo‘naltiriladi.*

****** Hukumat qarorlari bilan belgilangan normativlarga asosan taqsimlanadi.*

Xalq deputatlari Buxoro viloyat
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-89-97-2-0-K/23-son qaroriga
5-ilova

Shahar va tumanlar mahalliy budjetlarining
2024-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

mln.so‘mda

budjetlar nomi	Daromad	Xarajat
JAMI	**1 273 521,3**	**2 628 483,0**
Buxoro shahri	247 086,9	325 067,9
Kogon shahri	73 545,5	109 137,3
Olot tumani	62 586,5	169 058,0
Buxoro tumani	92 857,4	184 086,8
Vobkent tumani	89 150,0	199 652,0
G‘ijduvon tumani	147 245,0	314 891,2
Kogon tumani	74 322,0	123 938,7
Qorako‘l tumani	86 172,5	240 861,5
Qorovulbozor tumani	45 616,5	101 656,9
Peshku tumani	84 611,0	191 346,0
Romitan tumani	91 337,3	209 098,3
Jondor tumani	84 516,0	220 865,4
Shofirkon tumani	94 474,8	238 823,0

Xalq deputatlari Buxoro viloyat
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-89-97-2-0-K/23-son qaroriga
6-ilova

Shahar va tumanlar mahalliy budjetlarining 2024-yilgi yuqori budjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari

mln.so‘mda

Shahar va tumanlar	**Ajratiladigan miqdori**	**shundan, aksiz solig‘i tushumlari hisobidan o‘tkazib beriladigan daromadlar**
JAMI	**1 354 961,7**	**346 809,6**
shundan		
Buxoro shahri	77 981,0	49 904,0
Kogon shahri	35 591,8	10 998,4
Olot tumani	106 471,5	17 731,1
Buxoro tumani	91 229,4	30 219,9
Vobkent tumani	110 502,0	25 183,3
G‘ijduvon tumani	167 646,2	54 769,3
Kogon tumani	49 616,7	14 321,9
Qorako‘l tumani	154 689,0	29 209,2
Qorovulbozor tumani	56 040,4	3 374,9
Peshku tumani	106 735,0	22 236,7
Romitan tumani	117 761,1	25 697,2
Jondor tumani	136 349,4	31 436,3
Shofirkon tumani	144 348,2	31 727,5

Xalq deputatlari Buxoro viloyat
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-89-97-2-0-K/23-son qaroriga
7-ilova

Viloyat, shahar va tumanlar mahalliy budjetlarida
2024-yilda yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

mln.so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
	JAMI	**27 000,0**
	shundan	
1	Viloyat budjeti	10 200,0
2	Buxoro shahri	2 214,0
3	Kogon shahri	769,0
4	Olot tumani	1 011,0
5	Buxoro tumani	1 144,0
6	Vobkent tumani	1 130,0
7	G‘ijduvon tumani	2 214,0
8	Kogon tumani	777,0
9	Qorako‘l tumani	1 454,0
10	Qorovulbozor tumani	651,0
11	Peshku tumani	1 118,0
12	Romitan tumani	1 412,0
13	Jondor tumani	1 405,0
14	Shofirkon tumani	1 501,0

Xalq deputatlari Buxoro viloyat
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-89-97-2-0-K/23-son qaroriga
8-ilova

Viloyat mahalliy budjetining daromadlar prognozini (bajarilmagan qismini) va xarajatlar rejasini teng miqdorda 2023-yil III-chorakdan kamaytirgandan holda, IV-chorakka o‘tkazish (ko‘paytirish) bo‘yicha kiritiladigan o‘zgartirishlar

mln.so‘mda

№	Daromadlar va xarajatlar nomi	2023-yil bo‘yicha kiritiladigan o‘zgartirishlar jami	Shundan	
			III-chorakdan kamaytiriladigan miqdori	IV-chorakka o‘tkaziladigan miqdori
1.	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	0,0	-19 650,0	19 650,0
	Daromadlar jami	**0,0**	**-19 650,0**	**19 650,0**
2.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrdagi PQ-465-sonli qaroriga asosan sog‘likni saklash muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash bo‘yicha kreditor karzdorliklarni koplash uchun ajratilgan mablag‘lar	0,0	-6 375,0	6 375,0
3.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi PQ-57-sonli qaroriga asosan viloyatdagi ta’lim muassasalarining isitish tizimini ko‘mirga moslashtirish maqsadida qozonlar xarid qilish xarajatlari	0,0	-8 200,0	8 200,0
4.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi PQ-57-sonli qaroriga asosan viloyatdagi ta’lim muassasalarida kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o‘rnatish xarajatlari	0,0	-5 075,0	5 075,0
	Xarajatlar jami	**0,0**	**-19 650,0**	**19 650,0**

Izoh: Ushbu o‘zgartirishlar belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishilgan holda, kiritiladi.